

Oskinbayeva Gulziyba Davletbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

MOTIVATSION SOHA SHAXS O'ZINI O'ZI RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada talabalik davrida shaxs motivatsion sohasiga o'zini o'zi rivojlantirishning ta'siri masalalariga doir fikrlar keltirib o'tilgan. Dastavval shaxs motivatsion sohasining tuzilishi, uning tarkibiy komponentlari, rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillari ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, talabalik davrida o'zini o'zi rivojlanishi va motivatsion soha o'rtasidagi bog'liqlik empirik jihatdan tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: shaxs motivatsion sohasi, o'zini o'zi rivojlantirish, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, hayotiy ta'minlanganlik, komfort, muloqot, umumiy faollik, ijodiy faollik, ijtimoiy foydalilik.

МОТИВАЦИОННАЯ СФЕРА КАК ФАКТОР, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЙ САМОРАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В статье приводятся мнения по вопросам влияния саморазвития на сферу мотивации личности в период студенческой жизни. Первоначально указывается структура мотивационной сферы личности, ее структурные компоненты, социально-психологические факторы ее развития. В частности, в студенческие годы была эмпирически исследована взаимосвязь между саморазвитием и мотивационной сферой.

Ключевые слова: мотивационная сфера личности, саморазвитие, профессиональное саморазвитие, жизнеобеспечение, комфорт, общение, общая активность, творческая активность, общественная полезность.

MOTIVATIONAL SPHERE AS A FACTOR THAT ENSURES SELF- DEVELOPMENT OF THE INDIVIDUAL

Annotation. The article cites opinions on the issues of the influence of self-development on the field of personality motivation during student life. Initially, the structure of the motivational sphere of the individual, its structural components, socio-psychological factors of its development are indicated. In particular, the relationship between self-development and the motivational field has been empirically researched as a student.

Keywords: person motivational sphere, self-development, professional self-development, life-assurance, comfort, communication, ymumiy activity, ujodiy activity, ujtimoy utility.

Ma'lumki, o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda o'zlarining kasbiy istiqbollari mustaqil va real ravishda bayon qilishga va amalga oshirishga tayyor, mas'uliyatli, tanqidiy fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, shaxsning motivatsion sohasini o'rganish hozirgi vaqtda juda muhim hayotiy muammo hisoblanadi. Chunki insonning motivatsion sohasi uning boshqa barcha hayotiy qarashlari, yo'nalishi va o'zining kimligini aniqlashga qaratilgan hokimiyatga aylanadi (K.V.Abakulova, A.G.Asmalov, N.A.Vaselev, V.P.Zinchenko, V.V.Signs, V.E.Klochko, D.A.Leontev, E.Yu.Patleeva). Ta'kidlash joizki, motivatsion faoliyatning manbai va shu bilan birga har qanday faoliyat natijasini rag'batlantirish tizimi sifatida turli jihatlari o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan shaxs motivatsion sohasi turli mualliflar tomonidan o'ziga xos talqin qilinadi. Tadqiqotlar uni o'ziga xos motiv, yagona tizim hamda ularning murakkab o'zaro to'qnashuvi va ta'sirida ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, manfaatlarni o'z ichiga olgan maxsus soha sifatida

192 belgilaydilar. Motivatsiyani o'rganadigan (V.I.Aseev, J.Atkinson, L.I.Bojovich, B.I.Dodonov, A.Maslou, E.K.Savenko) uni ma'lum bir ierarxik tuzilmalarni o'z ichiga olgan murakkab tizim sifatida qarashi samarali bo'lishini ta'kidlaydilar. Shu o'rinda motivatsion sohaning tuzilishi muzlatilgan statuc emas, balki hayot jarayonida rivojlanadigan ta'limdir [3]. Mazkur masala, X.Murriy tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib, ko'plab xatti-harakatlarining motivatorlarini orasida u to'rtta asosiy jihatini ajratib ko'rsatadi: yutuqqa bo'lgan ehtiyoj, hukmronlik, mustaqillik, kirisha olish.

A.Maslou tomonidan tuzilgan shaxsning motivatsion sohasi ikki qatlam shaklida taqdim etiladi: yuqori qavat ong tomonidan to'liq boshqariladigan psixik hodisalarni, pastki qavat disklar, kayfiyatlarni, ta'sirlarni, istaklarni va boshqalarni shakllantiradi [1] A.Maslou tomonidan individual motivlarni emas, balki ularning shaxs rivojlanishidagi roliga qarab ahamiyatlik ierarxiyasida tartiblashtirilgan barcha guruhlarini ajratib ko'rsatadi. Shuningdek, A.Maslouning asosiy g'oyasi shundan iboratki, shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yo'li o'zini o'zi anglashi uchun uning dolzarb ehtiyojlarini qondirgandan keyingina ochiladi.

Psixologik rivojlanish omillariga tobora yuqori ehtiyojlarni doimiy ravishda qondirish sifatida taqdim etiladi. O'zini o'zi anglashga nisbatan harakat faqat quyi ehtiyojlarni qondirgandan keyingina yuzaga kelishi mumkin. Motivlar ko'rinishidagi ehtiyojlarni ob'ektivlashtirish jarayoni tabiatan individual bo'lib, ma'lum bir odam hayotining sharoitlariga bog'liq. Xususan, muloqotga bo'lgan ehtiyoj ba'zi odamlarda hamkorlik motivatsiyasi, alturizm, o'zgalarda boshqalarga nisbatan zulmkor, kelishmovchilik pozitsiyasi shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, A.Maslouning fikriga ko'ra, insonning asosiy ehtiyoji – bu o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi namoyon qilish istagidir. Hayotning har bir lazasida shaxs oldinga siljish, yuksak maqsad yo'lida paydo bo'ladigan to'siqlarni yengib o'tish yoki orqaga chekinish qurolli maydoniga kirish yoki undan bosh tortish kabi tanlovlar mavjud.

O'zini o'zi anglaydigan kishi har doim oldinga siljishini, to'siqlarni yengib o'tishni tanlaydi. A.Maslouning fikricha, o'zini o'zi qayta namoyon qilish tug'ma hodisa bo'lib, bu inson tabiatining bir qismidir. Inson tug'ilishida yaxshilik, axloq, hayrixohlik ehtiyojlari bilan tug'iladi. Ular insonning ehtiyojlarini amalga oshirishi kerak. Shuning uchun o'zini ro'yobga chiqarish tug'ma ehtiyojlardan biridir [2].

Shuningdek, K.Obuxova himoya motivlarini alohida ta'kidlab, bu motivlar, go'yo odam o'zini tan olishi qiyin bo'lgan asosiy ehtiyojlarni "yashiradi". Himoya motivining namoyon bo'lishi, harakatlar maqsadga zid bo'lmagan, balki u bilan qisman bog'liq bo'lgan hollarda sodir bo'ladi. Yu.M.Orlovning ta'kidlashicha, shaxs o'zini o'zi anglash va rivojlantirish jarayonining modulyatori bo'lgan hayotiy maqsadlarning ma'lum bir tizimi insonning asosiy intilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Hayotiy yo'nalishlar – bu dastlab ma'lum bir faoliyat turiga moyillik, faoliyat uslubi, o'ziga, odamlar va umuman olamga bo'lgan munosabat turini ifodalovchi insonning tabiiy umumiy hayotiy yo'nalishi kiradi. Ba'zi odamlar ulardan kelib chiqadigan maqsadlar va hayotiy vazifalarning butun tuzilishiga ega. Ular o'zlarini bir vaqtning o'zida va ketma-ketlikda e'lon qilishlari mumkin. Chunonchi, hayotning ma'lum bir davrida eng muhim hayotiy yo'nalishlar va vazifalarning biri yoki ikkinchisi birinchi o'ringa chiqadi [4].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz shaxsning motivatsiya psixologiyasining asosiy muammolaridan biri degan xulosaga kelishimiz mumkin. Zamonaviy psixologiyaning rivojlanishi uchun uning ahamiyati inson faoliyati manbalarini, uning faoliyatini rag'batlantiruvchi kuchlar, xulq-atvorini tahlil qilish bilan bog'liq.

Motivatsion tuzilmani shaxs tomonidan muayyan harakatlarni amalga oshirish uchun asos sifatida ko'rib chiqish mumkin. Jumladan, shaxsiy xulq-atvor bir motiv bilan emas, balki ularning yig'indisi bilan belgilanadi. Bunday motivlar shaxsiga ta'sir qilish darajasiga qarab, bir-biriga ma'lum nisbatda bo'lishi va umumlashtirilgan shaklda ko'plab dispozitsiyalarni ifodalaydi.

Rivojlanish jarayonida inson hayotiy tajribani egallashi bilanoq, uning oldida namoyon bo'lishining yangi qirralari, balki hatto ozmi-ko'pmi chuqur qayta ko'rib chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur qayta o'ylash jarayonining inson butun hayoti davomida kuzatib boradi. Uning mavjudligini eng yaqin va asosiy mazmunini shakllantiradi hamda harakat motivlarini va

hayotda hal qiladigan vazifalarning ichki ma'nosini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan olganda, motiv va xulq-atvor motivlari muammosi psixologiya fanida hal qiluvchi masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ishimizning navbatdagi bosqichida o'zini o'zi rivojlantirish va shaxs motivatsion tuzilish sohalari o'rtasidagi interkorrelyatsion bog'lanishlarni aniqlashga e'tiborimizni qaratdik. Buning uchun sinaluvchilar guruhida T.A.Ratanova, N.F.Shlyaxtaning "O'zini o'zi rivojlantirishga tayyorgarlik", V.I.Zvereva, N.V.Nemovlarning "Pedagogning rivojlanishga tayyorgarlik darajasini baholash" va "Shaxs motivatsion tuzilishining diagnostikasi" (V.E. Milman) metodikalari o'tkazildi. O'tkazilgan metodikalar asosida to'plangan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

1-jadval

O'zini o'zi rivojlanishi va shaxs motivatsion tuzilish sohalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik

Motivatsion tuzilish sohalari	O'zini o'zi rivojlantirish	Kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish
Hayotiy ta'minlanganlik	0,13*	0,00
Komfort	0,18**	-0,02
Muloqot	0,17**	0,01
Umumiy faollik	0,09	0,04
Ijodiy faollik	0,22**	-0,02
Ijtimoiy foydalilik	0,15**	-0,03

Empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, hayotiy ta'minlanganlik o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,13$; $p \leq 0,05$) ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ma'lumki, talaba shaxsida o'z hayotidan qoniqishi hayotiy barcha ehtiyojlari bilan ta'minlanganlik, ularda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning destruktiv tipining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, mazkur toifaga kiradigan talabalarda o'zini o'zi yuqori baholash, atrofdagilardan o'zini ustun qo'yish kabi sifatning taraqqiyoti kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, talaba shaxsining har jihatdan to'laqonli ta'minlanganligi, o'z ehtiyojlaridan ham ustun narsalarga ega bo'lishi, ularda o'zini o'zi anglash tizimi bilan bog'liq xususiyatlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Metodika natijalariga ko'ra, o'zini o'zi rivojlantirish komfort bilan ($r=0,18$; $p \leq 0,01$) kuchli darajada ahamiyatli munosabat mavjudligi aniqlandi. Ta'kidlash joizki, talaba o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun o'ziga qulay muhit yaratishi lozim. Buning uchun talaba kursdoshlari, tengdoshlarini o'ylamagan holda o'zi uchun qulay bo'lgan muhitni yaratishga harakat qiladi. Albatta, o'zgalarni o'ylamagan talabalarga nisbatan qolganlarda ichki ziddiyatlilik, nizolashuvchanlik, o'zgalarga nisbatan nafrat hissining uyg'onishiga sabab bo'ladi. Shu bois mazkur hodisalar o'rtasida ahamiyatli bog'liqlik kuzatiladi.

Tajriba natijalariga ko'ra, talaba shaxsida muloqotchanlik qobiliyatining rivojlanganligi o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,17$; $p \leq 0,01$) kuchli darajada ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi qayd etildi. Ma'lumki, talaba o'z sohasiga doir bilim, ko'nikma, malakalarini puxta egallashi hamda kelajakda malakali mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun o'zlarida muloqotchanlik qobiliyati rivojlanishini talab qiladi. Aksincha, talaba shaxsida muloqot malakalarini rivojlanmaganligi ularni atrofdagilar bilan muloqotga kirishish jarayonida negatvizm va agressiv holatlarning namoyon qilishlari bilan tavsiflanadi. Bu o'z-o'zidan o'ziga va o'zgalarga nisbatan hurmat hissining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

Talabalik davrida ijodiy faollik o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,22$; $p \leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatlilikka ega. O'zida ijodiy faollik ustuvor bo'lgan talabalar doimiy ravishda ijodkor, har qanday narsaga nisbatan kreativ yondashadigan, ixtiro va kashfiyotlarni amalga oshirishga moyil shaxslar hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, talabalar tomonidan tayyorlangan ijod

194 mahsullari atrofdegilar tomonidan o'rinli baholanmasa, ularda o'zlari tomonidan yaratilgan mahsulotlaridan qoniqmaslik, o'z imkoniyati va qobiliyatlarini yuzaga chiqarmaslikka nisbatan xohishning ustuvorligi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan olganda, talabalik davrida ijodiy faollikning ortishi ulardagi o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning destruktiv tipiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy foydalilik o'zini o'zi rivojlantirish bilan ($r=0,15$; $p \leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatlilikka ega ekanligi aniqlandi. Talabalar faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'zining barcha faoliyatlarida ijtimoiy faollik ko'rsatishiga harakat qiladilar. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, talaba o'quv faoliyatida qo'lga kiritadigan muvaffaqiyatlarining asosini ular tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy faollik tashkil qiladi. Shuning uchun aksariyat talabalarimizda o'qish va ijtimoiy faoliyatlarda yuqori faollik bilan harakat qilishlari kuzatiladi. Demak, o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning destruktiv tipi yuqori darajada rivojlangan talabalarda ijtimoiy faollik kuchli darajada ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalariga ko'ra, talabalik davrida shaxs motivatsion tuzilish sohalari o'rtasida ahamiyatli aloqadorlik ko'zga tashlanadi. Shuning bilan birga, talaba shaxsida kursdan kursga o'tishi bilan o'zini o'zi rivojlantirish va motivatsion tuzilish sohasida ahamiyatli aloqadorlik qayd etildi. Ayniqsa, shaxs o'zini o'zi rivojlantirish shaxs motivatsion tuzilishining kayfiyat, muloqot, ijodiy faollik, ijtimoiy foydalilik kabi sohalari bilan kuchli darajada hayotiy ta'minlanganlik bilan ahamiyatli aloqadorlik kuzatilsa, umumiy faollik bilan bog'liqlik qayd etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Головаха Е.И. Жизненная перспектива и ценностные ориентации личности / Психология личности в трудах отечественных психологов / Сост. и общая редакция Л.В. Куликова. – СПб.: Питер, 2001. С. 256-269.

2. Горская Н.Е. Развития мотивационно- потребностной сферы как фактор формирования будущего специалиста// Вестник Восточно-Сибирской государственной академии образования 2010

3. Горская Н.С. Самосознание и мотивационная сфера личности: монография. Игрукск: Изд-во. ИрГГУ, 2011. 128с

4. Павелков Р.В. Возрастная психология: учеб. [для студ. высш. учеб. закл.] / Р.В. Павелков. — К.: Кондор, 2011. — 468 с.